li va elektron o‘qitish resurslari borasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Quyidagi jadvalda asosiy mezonlarga ko‘ra xorijiy va mahalliy tajribalar taqqoslanadi (3-jadval).

3-jadval

Xorijiy va mahalliy tajribalarni taqqoslash

Mezoni	Xorijiy tajriba	O‘zbekiston tajribasi
Ta’lim modeli	Adaptiv va AI asosidagi individual yondashuv	An’anaviy + aralash (blended) ta’lim
Laboratoriyalar	Virtual va masofaviy robot laboratoriyalari	Asosan, fizik laboratoriyalar, cheklangan virtual muhitlar
Platformalar	ROS, Gazebo, Webots, MATLAB Robotics Toolbox	Arduino, LEGO Mindstorms, Moodle, Google Classroom
Pedagogik yondashuv	Student-centered learning, problem-based learning	Aralash yondashuv, o‘qituvchi markazida
Amaliy ko‘nikmalar	Talabalarning algoritmik tafakkuri va muhandislik kompetensiyalari rivojlangan	Boshlang‘ich amaliy ko‘nikmalar, dasturlash va robot boshqaruvi asoslari
Sun’iy intellekt integratsiyasi	Talaba faoliyatini tahlil qilish, individual tavsiyalar berish	Boshlang‘ich darajada, ko‘proq o‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlash

Natijalar. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda robototexnika ta'limida adaptiv AI asosidagi tizimlar keng qo‘llaniladi va o‘quv jarayoni talabalarga moslashtirilgan. Mahalliy tajriba ko‘proq aralash, an’anaviy o‘qitish yondashuviga tayanadi, ammo raqamli va elektron platformalar orqali ta’lim jarayonini samaraliroq qilishga qaratilgan. Shuning uchun xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish katta ilmiy va amaliy vazifadir.

Xulosa. Yuqorida aytib o‘tilgan xorijiy va mahalliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, elektron ta’lim muhitida robototexnika ta’limida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu yondashuv individual o‘rganish, talabalarning bilimlarini chuqur tahlil qilish va ularning ijodiy va texnik ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shunday qilib, robototexnika ta’limida xorijiy tajribalarni chuqur o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish muhim ilmiy vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Brusilovsky P. (2001). Adaptive Hypermedia. User Modeling and User-Adapted Interaction, 11(1–2), p. 87–110.

(2). Matarich M J. (2004). Robotics Education for All Ages. AI Magazine, 25(2), p. 12–17.

(3). Papert S. (1980). Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas. New York, Basic Books.

(4). Woolf B.P. (2010). Building Intelligent Interactive Tutors. Student-Centered Strategies for Revolutionizing E-Learning. Burlington: Morgan Kaufmann.

(5). Luckin R. (2018). Machine Learning and Human Learning. AI in Education. Journal of Educational Technology, 49(2), p. 45–55.

(6). Holmes W. (2017). Artificial Intelligence in Education. Learning, Teaching and Research. UCL Knowledge Lab.

(7). O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi. (2022). Raqamli ta’lim strategiyasi – 2030, Toshkent.

(8). ROS.org. (2022). Robot Operating System Documentation. Online: https://www.ros.org

(9). MATLAB. (2021). Robotics System Toolbox User Guide. Natick, MA: The MathWorks Inc.

(10). Gazebo Sim. (2022). Gazebo Simulation Software Documentation. Online: http://gazebosim.org

Shukurov Ibroxim Rixsibayevich (Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNING GIMNASTIKA MASHQLARI ORQALI JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida gimnastika mashqlaridan samarali foydalanish orqali ularning harakat faolligini oshirish, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kunlik harakat faolligi hajmi, gimnastika mashqlari jismoniy sifatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy asosdagi tahlili, jismoniy tayyorgarlik darajasini yaxshilash hamda sog‘ligini mustahkamlash haqidagi ma’lumotlar ishonchli, aniq va obyektiv bo‘lishi lozimligi masalalari keng yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: salomatlik, maktab yoshi, ta’lim tizimi, harakatlanish, intensiv rivojlanish, jismoniy tarbiya darsi, gimnastika mashqlari.*

Шукуров Иброхим Рихсибаевич (Институт переподготовки и повышения квалификации специалистов по физической культуре и спорту, г. Ташкент, Республика Узбекистан)

ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ СРЕДСТВАМИ ГИМНАСТИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ

Аннотация. *В данной статье широко рассматриваются вопросы повышения уровня двигательной активности учащихся начальных классов за счёт эффективного использования гимнастических упражнений на уроках физической культуры. Представлен научно обоснованный анализ суточного объёма двигательной активности учащихся начальных классов в общеобразовательных школах, значения гимнастических упражнений в развитии физических качеств, а также вопросов повышения уровня физической подготовленности и укрепления здоровья. Подчёркивается, что представленные данные и результаты исследования должны быть достоверными, точными и объективными.*

Ключевые слова: *здоровье, школьный возраст, система образования, двигательная активность, интенсивное развитие, урок физической культуры, гимнастические упражнения.*

Shukurov Ibroxim Rixsibayevich (Institute for Retraining and Advanced Training of Specialists in Physical Education and Sports, Tashkent city, Republic of Uzbekistan)

TECHNOLOGY FOR DEVELOPING PHYSICAL FITNESS OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH GYMNASTICS EXERCISES

Annotation*. This article extensively examines issues related to increasing the level of physical activity of primary school students through the effective use of gymnastics exercises in physical education classes. It provides a scientifically grounded analysis of the daily volume of physical activity of primary school students in general secondary education institutions, the significance of gymnastics exercises in the development of physical qualities, as well as the improvement of physical fitness and the strengthening of health. The article emphasizes that the presented data and findings must be reliable, accurate, and objective.*

Keywords: *health, school age, education system, physical activity, intensive development, physical education lesson, gymnastics exercises.*

Kirish. Keyingi yillarda Respublikamiz miqyosida amalga oshirilayotgan xayrli ishlardan biri har tomonlama yetuk barkamol va sog‘lom avlodni voyaga yetkazish dasturini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-dekabrdagi “Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–449-qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, unda gimnastika sport turlari ommaviyligini oshirish hamda sportchilarni eng quyi bo‘g‘indan boshlab tayyorlash va seleksiya qilish maqsadida sport maktablarida – “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida o‘tkazilgan ommaviy sport musobaqalari, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim maktablaridan gimnastika sport turlari bo‘yicha saralab olingan bolalar dastlab sport maktabining sport-sog‘lomlashtirish guruhlarida harakatlanish qobiliyatini kuchaytirish va harakat faolligi tanqisligini to‘ldirish bo‘yicha shug‘ullantirish tizimini joriy qilish lozimligi asosiy maqsad qilib olingan.

Materiallar va metodlar. Mazkur tadqiqot umumiy o‘rta ta’lim maktablari jismoniy tarbiya darslarida har bir o‘quvchining salomatligi holatini, jismoniy tayorlanganlik darajasini, qiziqishlarini va talablarini qat’iy inobatga olish zarur. Ushbu talablarni buzilishi salomatlikka ziyon yetkazadi va jismoniy tarbiya darslari samaradorligini keskin pasaytirib yuboradi. Kichik maktab yosh davri maktab ta’lim tizimida alohida o‘rin egallaydi, chunki bu yosh davrida o‘quvchilarning harakatlanish malaka va ko‘nikmalari, qiziqishlari, talablari shakllana boradi, bilish jarayonlari faollashadi. Shuningdek, bu davrda o‘quvchilar organizmi va uning funksiyalarini intensiv rivojlanishi, ma’lum darajada hayotiy shart-sharoitlarga va faoliyat xarakteriga, xususan, jismoniy tarbiya vositalaridan yo‘naltirilgan holda foydalanishga bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Jismoniy tarbiya fanining umumiy vazifalari bilan bir qatorda, gimnastika mashqlari bir qator ixtisoslashgan vazifalarni ham samarali hal etish imkoniyatlariga ega.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning tabiiy talabi harakat faolligidir, yoz oylarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni erkin rejimdagi harakati 12000-16000 qadamga yetadi. Qiz bolalarniki esa, o‘g‘il bolalarnikiga qaraganda 16–30% past bo‘ladi. Biz tadqiqotlarimizda kunlik harakat faolligi qanday hajmda ekanligini, har xil gimnastik mashqlar bajarilishi aniqlandi (1-jadval). Tadqiqot davomida amalga oshirilgan o‘lchashlar, hisob-kitoblar, ma’lumotlarni va quyida taqdim etilgan asosiy mazmun tahlilini olishga imkon berdi.

1-jadval

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining harakat faolligi (qadamlar soni)

Mushak faoliyatining ko‘rinishi	Davom etish vaqti, (daqiqa)	Harakatlarning hajmi, qadamlar	
		o‘g‘il bolalar	qiz bolalar
Ertalabki gimnastika mashqlari (uyda)	10	400–500	400–500
Jismoniy tarbiya darsi (maktabda)	10	200–300	200–300
Jismoniy tarbiya darsi tanaffuslar va mustaqil ishlarda	3	120–150	150–130
Tanaffuslar: katta; kichik. Jismoniy tarbiya darslarida Ochiq havoda	 15 – 45 60–90	 800–1000 400–500 1200 3000– 4000	 700–800 400-450 1050 2000–2050
Darsdan keyingi sport to‘garaklarida	99	6840	6840

Jismoniy tarbiya darsining ta’sir etishidagi kamida eng muhim komponenti gimnastika mashqlarni bajarish o‘rtasidagi dam olish hisoblanadi. Mashg‘ulot yuklamasini dam olish bilan almashlab olib borish – jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha mashg‘ulotni o‘tkazishni eng asosiy shartlaridan biridir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sog‘ligini mustahkamlash, chiniqtirish, jismoniy sifatlarini tarbiyalash jismoniy tarbiya darsining asosiy vazifasi hisoblanadi. Olimlar, amaliyotchi mutaxasislarning ta’kidlashicha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiya tizimida shaxsga majmuali, insoniy ta'sir o‘tkazishi, har bir o‘quvchini muntazam va imkon qadar to‘la jismoniy rivojlanish huquqining amalga oshirilishini ta’minlashi kerak, degan xulosaga kelmoqdalar.

Jismoniy tarbiya darslarida gimnastika mashqlarining sog‘lomlashtiruvchi, rivojlantiruvchi shakllaridan foydalanib, o‘quvchilarning harakat faolligini oshirish, jismoniy tayorgarligini yaxshilashga, jismoniy ish qobilyatining ko‘tarilishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Shu sababli jismoniy tarbiya darslarida gimnastika mashqlaridan foydalangan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish, vosita va uslublarini izlab topish, ularni samaradorligini amalda qo‘llash zarur.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning charchashi asosan statik holatga o‘tish, yozish va o‘qishni gigiyenik to‘g‘ri holatda bajara olishga bog‘liq. Maktab yoshidagi o‘quvchilar hayotida maktab davridagi jismoniy tarbiya darslarining ahamiyati shundan iboratki, u har tomonlama jismoniy rivojlanish, sog‘liqni mustahkamlash, turli xil harakatlarni shakllantirish ko‘nikmasini hosil qilishdir.

Natijalar va muhokama. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning tezkorligini tarbiyalashda 5–6 soniya ichida qisqa vaqtli yuklama berilganda u ko‘proq samarali o‘tadi. Dam olish oralig‘i xuddi jismoniy yuklama bergandagidek, doimiy bo‘lmasligi lozim. Gimnastika mashqlarini tez-tez takrorlash o‘quvchilar organismning bir xillikka moslashish bilan bog‘lik bo‘lgan tezkorlikni rivojlantirish darajasini barqaror qilishdan qochish uchun ularni o‘zgartirib turish kerak (2-jadval).

2-jadval

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlanishga yo‘naltirilgan jismoniy tarbiya darslariga ta’sir etuvchi komponentlar mazmuni

Mashg‘ulotga ta’sir etishga yo‘naltirilganligi	Yurak qon tomirini maksimal qisqarish sur’ati 170 zarba/daq.			Yurak qon tomirini katta qisqarish sur’ati 150 zarba/daq.		
	Jismoniy tarbiya darsining komponentlari					
	Davom etishi (s)	Dam olish (s)	Takrorlash (marta)	Davom etishi (s)	Dam olish (s)	Takrorlash (marta)
Tezkorlik	5–10	150–80	5–6	–	-	-
Tezkor-kuch	5–10	150–80	5–6	20–120	90–20	5–6
Chidamlilik	10–20	60–90	6–7	20–120	30–60	6–7
Egiluvchanlik (harakat ko‘lami bo‘yicha)						

Chaqqonlik	10–20 10–20	60–90 180–180	6–7 5–6	20–120 20–120	30–60 150–180	6–7 4–5
Tezkorlik Tezkor-kuch Egiluvchanlik (harakat koʻlami boʻyicha) Chaqqonlik	- 120–180 120–180 120–180	- 30–60 30–60 90–120	- 5–6 5–6 4–5	-	-	-

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarning kuch sifatlarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan gimnastika mashqlarining 20–60% maksimal kuchlanish chegarasida, kam va oʻrtacha tortish yoki chigalyozdi mashqlari bilan mos ravishda tez, oʻrtacha va oʻrta meʼyorda bajarish mumkin. Gimnastika mashqlari turli-tuman boʻlishi shart va ishga xar xil mushak guruhlari jalb qilinadi.

Oʻquvchilarning kuch sifatlarini tarbiyalashning asosiy uslubi, tashqi qarshilik koʻrsatish bilan va choʻzish bilan bajariladigan mashqdir. U quyidagicha boshlangʻich sinf oʻquvchilarining tana ogʻirligining 1/2 qismiga teng boʻladi.

Jismoniy tarbiya darslarida boshlangʻich sinf oʻquvchilarning chaqqonlik va koordinatsiya qobiliyatlarini rivojlantirish uchun talab qilinadigan gimnastika mashqlari charchamasdan bajariladi, bu quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

•harakat funksiyasining boshlangʻich rivojlanishi;

•funksiya kuchini rivojlantirishga toʻplaydi va maksimal choʻqqiga keladi;

•chaqqonlikning rivojlanish meʼyori juda yuqori boʻlganda, maksimal choʻqqiga yetadi.

Jismoniy mashqlarni jadallik bilan bajarish mashgʻulot yuklamasining yoʻnaltirilganligiga bogʻliq boʻladi va yurakning qisqarish surʼati (YUQS) boʻyicha baholandi (3-jadval).

Tabiyki, boshlangʻich sinf oʻquvchilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik boʻyicha, ularda yuklamaning kattaligi yurakning qisqarish surʼati (YQS zarba/daq)ni koʻrsatkichlari boʻyicha nazorat qilinadi va aniq belgilanadi, oʻquvchilardan yurakning qisqarish surʼati koʻrsatkichlari boʻyicha yuklamaning oʻquvchilar organizmiga taʼsir reaksiyasini mustaqil ravishda malakalarini aniqlashni talab qiladi.

3-jadval

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarning yurakning qisqarish surʼati boʻyicha (YUQS) mashgʻulot yuklamasini baholash

Jadalligi	**Yurakning qisqarish surʼati (YUQS) zarba/daq.**	Jismoniy tarbiya darslarida gimnastika mashqlarini oʻrgatish uchun qatʼiy tartiblashtirilgan mashqlar metodi xarakterlidir. Bu esa qisman jismoniy tarbiya darsida sogʻlomlashtirish yoʻnalishini bajaradi. Kichik yuklama kerakli samaradorlikni bermaydi. Yuqori yuklama esa oʻquvchilarning sogʻligʻiga taʼsir koʻrsatadi. Oʻquvchilar organizmining jismoniy yuklamaga bergan javobi har xil, yurak qon tomir urishi, integral koʻrsatgich boʻlib hisoblanadi.
Past oʻrtacha maksimal va yaxshi tayyorlangan bolalarda	110–130 gacha 140–160 gacha 165–170 gacha	

Jismoniy tarbiya darsida jismoniy yuklamani boshqarish uchun mashq takrorlash soni, mashqlarni bajarish amplatudasi, oʻquvchilarni koʻtarayotgan ogʻirligini oʻzgartirish, mashqlarni bajarish sharoitini oʻzgartirish, oʻziga oʻzi qarshilik koʻrsatish va raqibning qarshiligi, mashqlarni bajarish tezligi, mashqlarni bajarish tempi, dastlabki holatga eʼtibor berish kerak.

Funksional imkoniyatlarni aniqlash muhim bosqich boʻlib, funksional diagnostika, xususan, funksional imkoniyatlarni, jismoniy ish qobiliyatlarini va oʻsib kelayotgan organizmning funksional holatining boshqa tavsiflarini testlash hisoblanadi.

Xulosa. Taʼkidlash lozimki, jismoniy tarbiya darslarining samarali tashkil etishda har bir boshlangʻich sinf oʻquvchilarining salomatlik holati, jismoniy tayyorgarlik darajasi, yosh xususiyatlari hamda individual qiziqish va talablarini inobatga olish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu omillarga rioya etilmasligi bolalar salomatligiga salbiy taʼsir koʻrsatib, jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini pasayishiga olib keladi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining gimnatika mashqlarisiz toʻliq rivojlanishi amaliyotda kuzatilmagan. Bu esa maktab yoshidagi bolalarning harakat faollligining yetishmasligi oʻsayotgan organizmning sogʻligʻiga salbiy ta'sir etishi oʻtkazilgan ilmiy tadqiqot ishlarida oʻz isbotini topgan. Shuningdek, boshlangʻich sinf oʻquvchilarining toʻlaqonli rivojlanishi uchun jismoniy tarbiya darslarisiz amalga oshirish mumkin emas. Bundan tashqari, maktab yoshidagi oʻquvchilar turli harakatlarni bajarish va koʻnikma hosil

qilishda qulay davr hisoblanadi. Maktab yoshida jismoniy tarbiya va aqliy mehnat qobiliyati ma'lum darajaga yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-dekabrdagi "Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-449-qarori. http: //Lex.uz

(2). М.Ж.Давурбаева. Кичик мактаб ёшидаги болаларда ҳаракат фаоллиги соғломлаштириш маданияти кўрсаткичи сифатида. "Халқ таълими", илмий-методик журнал, Тошкент, 2016, 3-сон, 76–80-бетлар.

(3). М.Ж.Давурбаева. 7–8 ёшли болаларнинг координацион қобилиятларини ритмик гимнастика воситалари ёрдамида ривожлантириш. "Халқ таълими", Тошкент, 2015, 3-сон, 66–72-бетлар.

(4). M.Zh.Davurbaeva. Educatoin of Physical Qualities at Gymnastic Classes in Primary School //Eastern European Scientific Journal Ausgabe 6, 2016, p. 139–143.

(5). А.К.Эштаев. Гимнастика дарси. Т., ЎзДЖТИ, 2004, 120-бет.

(6). Б.И.Неъматов. Мактабгача таълим ташкилотларида нафас олиш гимнастикасини ўтказишга доир тавсиялар. "Наманган Давлат университет ахборотномаси", илмий-методик журнал, Наманган, 2021, 12-сон, 589–595-бетлар.

(7). B.I.Ne'matov. Harakatli o'yinlar va uni o'qitish uslubiyoti. Toshkent, "Umid Design", 2021, 68-bet.

(8). B.I.Ne'matov. Sport mashg'uloti nazariyasi va uslubiyati. T., "Umid Design", 2024, 184-bet.

(9). B.I.Ne'matov. Jismoniy tarbiya va sportda ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish. Namangan, Ta'lim tadqiqotlari akademiyasi, 2024, 110-bet.

(10). Б.И.Неъматов. Учёт фактора степени биологического развития учащихся общеобразовательных школ. "Maktab va hayot", ilmiy-metodik jurnal, Toshkent, 2021, 4-son (160), 39–40-betlar.

(11). Б.И.Неъматов. Особенности модульного обучения специалистов по физической культуре и спорту на курсах повышения квалификации. "Образование Луганщины: теория и практика", научно-методический журнал, № 3 (22), Луганск. 2021, 28–31 с.

(12). B.I.Ne'matov. Initial training of young football players first year of study at children's and youth sports school. Mental enlightenment scientific – methodological journal. Year 2024, p. 160–167. https://doi.org/10.37547/mesmj-V5-I9-22.

Abdug'affarova Arofat Shamsiddinovna (O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti tayanch doktoranti)

FILOLOGIYA TALABALARINING LEKSIK KOMPETENSIYASINI SAMR MODELI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRSH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning filologiya talabalarini o'qitishdagi afzalliklari va ular yaratadigan keng imkoniyatlar tahlil qilinadi. Xususan, SAMR modeli asosida dars jarayonlarini tashkil etishning samarali jihatlari bayon etilgan. Maqolada ingliz tili darslarida leksik kompetensiyani raqamli vositalar yordamida takomillashtirish, talabalarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan*

Kalit so'zlar: *filologiya talabalari, SAMR modeli, leksik kompetensiya, raqamli ta'lim texnologiyalari, innovatsion metodika.*

Абдугаффарова Арофат Шамсиддиновна (Докторант Узбекского государственного университета мировых языков)

ФОРМИРОВАНИЕ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ-ФИЛОЛОГОВ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ SAMR

Аннотация. *В данной статье анализируются преимущества и широкие возможности, создаваемые цифровыми технологиями в обучении студентов-филологов. В частности, описываются эффективные аспекты организации учебного процесса на основе модели SAMR. В статье освещаются вопросы совершенствования лексической компетенции на уроках английского языка с помощью цифровых инструментов, а также развития знаний и навыков студентов.*

Ключевые слова: *студенты-филологи, модель SAMR, лексическая компетенция, цифровые образовательные технологии, инновационная методика.*

Abdugaffarova Arofat Shamsiddinovna (A doctorate of Uzbekistan State World Languages University)

DEVELOPING THE LEXICAL COMPETENCE OF PHILOLOGY STUDENTS BASED ON THE SAMR MODEL

Annotation. *This article analyzes the advantages and vast opportunities created by digital technologies in teaching philology students. In particular, it describes the effective aspects of organizing the educational process based on the SAMR model. The article highlights the issues of improving lexical competence in English classes through digital tools, as well as developing students' knowledge and skills.*